

Termiz shahrida erta va qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlari va uning salbiy oqibatlarining oldini olish hamda oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga amaliy ko'mak berish borasida amaliy uchrashuv tashkil etildi



Termiz shahrida erta va qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlari va uning salbiy oqibatlarining oldini olish hamda oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga amaliy ko'mak berish borasida amaliy uchrashuv

tashkil etildi

Mamlakatimizda oilaviy nizolarni, ayniqsa, ajrimlarni oldini olish maqsadida oiladagi nizoli holatlarni avvalo oilani o'zida er-xotin, qaynona-qaynota yaqin qarindoshlar ichida yoki mahallalarda sektor rahbarlari, huquq-tartibot idoralari, imom-xatib, otinoyilar, mahalla faollari jalb qilgan holda nizoga barham berish, oilani asrab qolish ishlarni mantiqiy davomi sifatida 2021 yil 25 iyunъ kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashining 2021 yil 27 apreldagi majlisining 2-sonli bayonnomasi ijrosi doirasida "Bog'zor" MFYdagi oilaviy nizoli vaziyatdagи oilalarga ma'naviy hamda amaliy ko'mak ko'rsatish uchun tashrif buyurildi. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolotida uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat Axborot-kutubxona markazida "O'zbekiston Respublikasida erta va qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlari va uning salbiy oqibatlarining oldini olish hamda Oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga amaliy ko'mak berish" mavzularida amaliy uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuv davomida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyat bo'limi, viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, viloyat "Buvijonlar maktabi" faol raisi va faol a'zolari, shahar Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi, mahallardagi xotin-qizlar hamda OAV vakillari ishtirok etishdi. Oilaviy zo'ravonlikni oldini olish va oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarga amaliy ko'mak berish, O'zbekiston Respublikasda erta va qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlari va uning salbiy oqibatlarining oldini olish hamda Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash kabi mavzularda mutaxassislar tomonidan ma'ruzalar qilindi. Vaholanki, bunday tadbirlarni o'tkazish bugungi kun uchun o'ta muhim sanaldi. Zero, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh vujudga kelishi sabab, uning oqibatda yaqin insonlar o'rtasida keskin ziddiyatlarga olib kelmoqda. Aksariyat aholi, ayniqsa, xotin-qizlarning ongida bu kabi nikohni oldini olish kelajak avlodni sog'lom dunyoga kelishida va yaqin qarindoshlar orasiga sovuqchilikka barham berishini singdirish hamda oilaviy tazyiqlarga ko'z yumib bo'lmaslik, bu kabi salbiy holatlarni oldini olish zarurligini targ'ibot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.